

Muallif: Namangan viloyat Mingbuloq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 – umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
Qaxorova Gulchexra

10-sinf

II-chorak test savollari

1. Hujayralarning ayrimlari kattalashadi, oziq zaxiralarini to'playdi, DNK miqdori ikki hissa ortadi. Bu jarayon gametogenezning qaysi davrida sodir bo'ladi?

- A. Ko'payish
C. Yetilish
- B. O'sish
D. Shakllanish

2. Sun'iy partenogenez yordamida erkak jinsli ipak qurtlarini yaratish usulini qaysi olim ishlab chiqqan?

- A. E. Gekkel
C. T. Morgan
- B. B.L. Astaurov
D. Gugo De-Friz

3. Blastoderma embrional rivojlanishning qaysi bosqichda hosil bo'ladi?

- A. Gastrulatsiya
C. Maydalanish
- B. Organogenez
D. Dastlabki organogenez

4. Chala metamorfozga xos organizmlarni aniqlang?

- A. Pardaqanotlilar
C. Tangachqanotlilar
- B. Ikkiqanotlilar
D. To'g'riqanotlilar

5. Gulli o'simliklarda sodir bo'ladigan ontogenez jarayonining qaysi davrida ontogenez zigotadan boshlanib, urug' hosil bo'lishi va uning pishib yetilishi bilan yakunlanadi?

- A. Embrional davr
C. Ko'payish davr
- B. Yoshlik davr
D. Qarilik davr

6. Geterozigota organizmda belgining yuzaga chiqishida har ikkala allelning ishtirok etishi..... deyiladi?

- A. Ko'p allellilik
C. Chala dominantlik
- B. Kodominantlik
D. To'liq dominantlik

7. Digomozigotali organizmlar AaBb (sariq, silliq) va aabb (yashil, burishgan) organizmlar chatishtirishdan F₁ da AaBb sariq silliq organizmlar olinadi. Digeterozigota duragaylar o'zaro chatishtirilganda F₂ da genotipik jihatdan nechta AaBb va aaBb hosil bo'ladi?

- A. 2:2
C. 1:1
- B. 4:2
D. 1:2

8. Jinsni aniqlashning progam tipiga mos misol keltiring?

- A. Kolovratkalarda sitoplazmaga boy tuhum hujayradan erkak organizm rivojlanadi
B. Halqali chuvalchaglarning urug'langan tuhum hujayrasi mustaqil hayot kechirsa, ular urg'ochi organizmdir
C. Halqali chuvalchaglarning urug'langan tuhum hujayrasi parazitlik qilib hayot kechirsa, ular erkak organizmdir
D. Kolovratkalarda sitoplazmasi kam tuhum hujayradan erkak organizm rivojlanadi

9. Odam terisining rangi ikki juft noallel gen bilan belgilanadi. BBCC genotipli odamlarning terisi qora, bbcc genotipli odamniki oq rangda bo'ladi. Genotipda 3 ta dominant gen bo'lsa teri qoramtir, 2ta bo'lsa oraliq, 1ta bo'lsa oqish bo'ladi. Oraliq terili erkak terisi oqish bo'lgan ayolga uylangan. Ular farzandlarining 6/8 qismida teri rangi oraliq, oqish; 2/8 qismida qoramtir va oq bo'lgan. Erkak va ayolning genotipini toping?

- A. BBcc × bbcc
C. BBCC × bbcc
- B. BbCc × Bbcc
D. bbCc × Bbcc

10. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noallel gen tomonidan belgilanib, nokumulativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipda dominant gen bo'lsa, tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi, agar genlar retsessiv bo'lsa, pat hosil bo'lmaydi, oyog'ida pati yo'q tovuq dominant gomozigotali patli xo'roz bilan chatishtirilganda F₁ da 120 ta, F₂ da 1120 ta jo'ja olindi, F₂ avlodning nechitasi digomozigotali bo'ladi?

- A. 280 ta B. 560 ta C. 420 ta D. 210 ta

11. Tranzitsiya – nima?

- A. Purin asosining pirimidin asosi bilan, aksincha, pirimidin asosining purin bilan almashishi
B. Bir puri azotli asosining ikkinchi purin azotli asosi yoki bir pirimidin azotli asosining ikkinchi pirimidin azotli asosi bilan almashishiga
C. Bir turga mansub organizm xromasomalarining karrali ortishiga
D. Organizmlarning yashash faoliyatini susaytiruvchi mutatsiyalar yig'indisiga

12. Sitoplazmatik irsiylanishga xos misolni aniqlang?

- A. Gipertrikoz B. Gemofiliya C. Ko'rish nervi atrofiyasi D. Albinizm

13. Qaysi olimlar bakteriyalarda genlar mutatsiyasining o'z-o'zidan sodir bo'lishini bakteriya koloniyalaridan nusxa ko'chirish usulini qo'llash vositasida isbot qilib berdi?

- A. Tuort va D'Errel B. Joshua va Ester Lederberg
C. B.Mak Klintok va Tuort D. Frederi Griffit va O. Everi

14. Quyidagi ta'rifni aniqlang? Transpozon yoki bakteriofag irsiy molekulasi kabi hujayra asosiy xromasomasi maxsus DNK izchilligini kesib, rekombinatsiyalanadi.

- A. Transpozonlar B. Retrotranspozonlar C. Avtonom plazmidlar D. Transmissibl plazmid

15. Transformatsiya –nima?

- A. Ma'lum sharoitda bir organizm irsiy molekulasi har qanday bo'lagining ikkinchi organizm irsiy molekulasi tarkibiga birikish hodisasi
B. Induksiya davrida profagning bakteriya genomidan biror genni olib chiqib ketishi
C. Bir zanjirli RNK molekulasidan qo'shaloq zanjirli DNK molekulasining sintezlanishi
D. Murakkab tuzilishdan oddiy tuzilishga o'tish

16. AQSH olimlari Boyer va Koen tomonidan qanday tadqiqot amalga oshirildi?

- A. Bakteriyalarda jinsiy jarayon sodir bo'lishini
B. Transduksiya jarayoni
C. Sun'iy ravishda rekombinant DNK olish va genlarni klonlash
D. Pnevmonokokklardagi transformatsiya hodisasini

17. Xromasomasida profag bo'lgan va erkin ko'paya oladigan bakteriyalar qanday nomlanadi?

- A. Potogen bakteriya B. Lizogen bakteriya C. Bakteriofag D. Donor bakteriya

18. Genlarni klonlashning to'g'ri ta'rifini aniqlang?

- A. Yot DNK bo'lagini rekombinant vektor konstruksiyalar vositasida ko'paytirish
B. Sun'iy plazmid Ti-plazmidaga nisbatan birmuncha kichik bo'lgan molekulalarga
C. Bir bakteriya hujayrasidagi genetik materialni ikkinchi bakteriyaga olib o'tkazish
D. Qo'shni nukleotidlar orasidagi fosfodiefir bog'larini tiklash orqali DNK bo'laklarini bog'lash

19. I-Autosomadagi retsessiv tipda irsiylanishi; II-X-xromosomaga birikkan, retsessiv genning irsiylanishiga xos kasalliklarni juftlang?

a-gemofiliya; b-fenilketonuriya; c-albinizm; d-namozshomko'rlik; e-chapaqaylik; f-daltonizm.

- A. I- a, b, c; II- d, e, f B. I- a,e, c; II- b, d, f
C. I- b, c, e; II- a, d, f D. I- c, e, d; II- a, b, f

20. Klaynfelter sindromi kasalligining belgilri?

- A. ko'zlari kichik, bir-biriga yaqin joylashgan, og'zi yarim ochiq, aqli zaif, bepusht.
B. Jizmoniy, aqliy jihatdan o'zgarishlar paydo bo'ladi, qo'l va oyoqlar haddan tashqari uzun bo'ladi, yelka chanoqqa nisbatan tor bo'li, jinsiy bezlarning rivojlanishi buziladi.
C. Bemorning boshi nisbatan kichik, yuzi va peshonasi keng.
D. Bo'yi past, bo'yni qisqa.

Test javoblari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Javob	B	B	C	D	A	B	A	D	B	A	B	C	B	D	A	C	B	A	C	B